

Umarov Baxriddin Mengboyevich*“Alfraganus universiteti”, “Psixologiya” kafedrası professori,
psixologiya fanları doktori*

VOYAGA YETMAGANLARDA OG‘ISHGAN VA JINOYATCHILIK XULQINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada deviant va delinkvent xulq-atvorning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida mulohazalar bayon etilgan. Xususan, jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan, umumxalq irodasiga muvofiq harakatda bo‘ladigan tartibotlar, bevosita xalq urf-odatları, o‘z istak maqsadlariga muvofiqlashgan amaliy udumlar bilan uyg‘unlashib ketgan va turmushda, ijtimoiy hayotda amal qilinadigan ijtimoiy me‘yorlar tahlili hamda deviant xulq-atvor, uning psixologik mohiyati, tavsifi bayon qilingan. Shuningdek, voyaga etmaganlarda og‘ishgan va jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta’sir etuvchi individual-psixologik, demografik, farzandlar va otalarning ma’lumotlilik darajasi, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, oilaviy shart-sharoit, turmush tarzi, gender va yosh davri xususiyatlarining ta’siri kabi ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: shaxs, tarbiyalanganlik darajasi, demografik xususiyat, ijtimoiy-psixologik omillar, deviant xulq, individual xususiyatlar, psixologik muhit, nosog‘lom oilaviy muhit, g‘ayriqonuniy ustanovkalar, oilaviy tarbiya.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕВИАНТ- НОГО И ПРЕСТУПНОГО ПОВЕДЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

Аннотация: В статье представлены соображения о социально-психологических характеристиках девиантного и делинквентного поведения. В частности, анализируются социальные нормы, формирующиеся в обществе и действующие в соответствии с волей народа, непосредственно гармонизированные с народными обычаями, практические практики, соответствующие собственным желаниям и целям, применяемые в жизни и обществе, а также девиантное поведение, его психологическая сущность и описание. Также анализируются социально-психологические факторы, влияющие на возникновение девиантного и криминального поведения у несовершеннолетних, такие как индивидуально-психологические, демографические характеристики, уровень образования детей и родителей, социально-экономический статус семьи, семейные условия, образ жизни, гендерные и возрастные особенности.

Ключевые слова: личность, уровень воспитания, демографические характеристики, социально-психологические факторы, девиантное поведение,

индивидуальные особенности, психологическая среда, нездоровая семейная среда, незаконные учреждения, семейное воспитание.

UMAROV B.M. SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVIANT AND CRIMINAL BEHAVIOR OF MINORS

Annotation: The article presents reflections on the socio-psychological characteristics of deviant and delinquent behavior. In particular, an analysis of social norms developed by society, harmonized with procedures that are in motion in accordance with the general will, directly with folk customs, practical tasks that are coordinated with the goals of one's own desire, and are practiced in marriage, social life, as well as an analysis of deviant behavior, its psychological essence, description are described. Socio-psychological factors such as individual-psychological, demographic, educational level of children and parents, socio-economic situation of the family, influence of family conditions, lifestyle, gender and age characteristics are also analyzed, affecting the origin of deviant and criminal behavior in minors.

Key words: Key words and concepts: personality, behavior, hospitalization rate, demographic characteristics, socio-psychological factors, deviant behavior, divided behavior, individual characteristics, psychological environment, unhealthy family environment, unknown hosts, family hospitalization.

Kirish. Aqlan barkamol, ma'nan sog'lom yoshlar va vatanparvarlarni tarbiyalash asosan ota-onalar, mahalla maslahatchilari, pedagog, psixolog hamda tarbiyachilar zimmasiga tushadi. Shu jihatdan ular nafaqat bilimdon bolalarni, balki eng avvalo, ana shu bilimlarni egallashni o'zining burchi deb biluvchi milliy kadrlar shaxsini shakllantirishga mas'uldirlar.

O'rganilayotgan tushunchaning murakkabligi hamda uning fanlararo xarakterga ega ekanligini ta'kidlash o'rinlidir. Deviant xulq birinchidan, "rasman o'rnatilgan yoki haqiqatda ushbu jamiyatda yuzaga kelgan me'yorlarga mos kelmaydigan muomala va inson harakati" ma'nosida psixologiya, pedagogika va psixiatriyaning predmeti sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, "Inson

faoliyatining ommaviy va mustaqkam shakllarga nisbatan ifodalanuvchi va rasman o'rnatilgan yoki ushbu jamiyatda haqiqatda mavjud bo'lgan me'yorlar va umidlarga mos tushuvchi ijtimoiy ko'rinish" ma'nosida u sotsiologiya, huquq, ijtimoiy psixologiyaning predmeti hisoblanadi.

Ijtimoiy jamiyat o'ziga xos umumiy qonuniyatlarga, inson faoliyati bilan bo'lgan me'yoriy tartibotlarga, hayotiy qonunlarga, turmush tamoyillariga muvoffiq rivojlanadi, taraqqiy etadi, jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga qat'iy rioya qiladi, amal qiladi. Ammo bu ijtimoiy me'yorlardan ham chetga chiqish, qonunlarga bo'ysinmaslik, huquqlarni buzish hollari ham jamiyatda uchrab turadi. Ana shu holatlar bevosita ijtimoiy jamiyat qonunlariga, siyosiy boshqarishga,

jamiyat umumiy qoida-qonunlarini o'zida mujassamlashtiradigan umumxalq irodasiga muvofiq harakatda bo'ladigan asosiy qonunlar majmuasi hukmron bo'lib, undan chetga chiqishlar jinoyat hisoblanib qoralanadi. Shu sababli jamiyatning huquqiy, qonuniy tartibotlari bevosita xalq urf-odatlarini, o'z istak maqsadlariga muvofiqlashgan amaliy udumlari bilan uyg'unlashib ketadi va u turmushda ijtimoiy hayotda amal qiladi va bu tartibotlarga rioya qilish ijtimoiy me'yorlar deb ataladi. Ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish, ya'ni bu ijtimoiy me'yorlarni buzish, ularga rioya qilmaslik jinoyatga qo'l urib, shu yo'ldan borishlik holatlari deviant xulq – deb ataladi [3].

Yurtimizda xulq og'ishi masalasi mustaqillik tufayli ilmiy va nazariy jihatdan o'rganishda imkoniyatlar yaratilib, kent tadqiq qilina boshlandi. Ammo jamiyatdagi deviant xulq masalasi jahondagi boshqa xalqlarga nisbatan Markaziy Osiyo halqlarida uzoq o'tmishdan oldin paydo bo'lgan bo'lib, ijtimoiy me'yordan chetga chiqish, axloq-odobdan chekinish holatlari qat'iyman qilingan, yo'l qo'yilmagan, harakatdagi qonundan ham ta'sirchan kuchga ya'ni, ham dunyoviy, ham diniy yo'l bilan, insonlar xulq-atvoriga ta'sir etguvchi kuchga aylangan va hozirda ham xalqimiz ana shunday ijtimoiy me'yorlar doirasida yoshlar tabiyasi amalga oshirilmoqda. Chunki ijtimoiy hayotda, jamiyatda insonlar faoliyatini, ularning xatti-harakatlarini va xulq-atvorlarini diniy,

dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy me'yorlar boshqaradi.

Ijtimoiy me'yor jamiyat boshqaruvining ajralmas ma'naviy, ruhiy va moddiy qismlaridan biri bo'lib, inson, shaxs yoki ijtimoiy guruh, qavm, elat xulq-atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi, muvozanatini saqlab, tobora mustahkamlab boruvchi tamoyil, qoidalar majmuasidan iboratdir. Ijtimoiy me'yorning jamiyatda bir necha turlari, xillari mavjud bo'lib, ularga asosan huquqiy, axloqiy, diniy, dunyoviy, hamda urf-odatlarga oid me'yorlari shular jumlasidandir [2].

Shaxs xulq-atvoridagi og'ishning ijtimoiy-demografik, gender va yosh xususiyatlarini o'rganish voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari to'g'risidagi nisbatan to'laroq ma'lumotlar olish imkoniyatini beradi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar o'rtasidagi xulq og'ishining yosh davriga ko'ra, qiyosiy tahlil qilish bolalar va o'smirlarda xulq og'ishi kelib chiqishining yosh davri xususiyatlariga bog'liq bo'lgan mexanizmini ochib berishga yordam beradi hamda voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va ular samaradorligining oshishiga yordam beradi.

Tadqiqotning maqsadi voyaga yetmaganlarda og'ishgan va jinoyatchilik xulqiining ijtimoiy-psixologik, shaxs va individual-psixologik, yosh, hududiy, statistik va jinsiy xususiyatlarini o'rganish hamda

voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va ularning samaradorlik darajasini ilmiy, psixologik-pedagogik jihatdan asoslashdir.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. M.N.Alemaskin, Z.V.Baeryunas, A.M.Dolgova, A.A.Vdovchenko, I.P.Bashkatov, A.S.Belkin, N.D.Levitov, Yu.V.Gerbeev, A.V.Zavalyuk, A.I.Ostrovskiy, B.A.Mirenskiy, A.I.Kochetov, S.V.Kudryavsev, U.S.Djekebaev, Y.Karaketov, Q.Abdurasulova, Z.S.Zaripov, G'.B.Shoumarov, E.G'oziev, V.M.Karimova, B.M.Umarov, N.G'.Komilova, N.A.Sog'inov, G.N.Tulaganova, F.I.Rajapova kabi psixolog va pedagog olimlarning ta'kidlashlaricha, bolalarning ongi, xulqi hamda faoliyati mazmunini ularni qurshab olgan muhit belgilaydi [5]. Ijtimoiy muhitdagi nosog'lomlik esa bola ongi va xulqida turli xil og'ishlarni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlanishicha, inson yosh davrlarini tahlil qilish, ularning har bir bola, o'smir va o'spirin hayotini chuqur o'rganishdan boshlanadi [4]. Bu esa, yosh davrlarining ular xarakteri xususiyatlaridagi o'zgarishlarning psixologik qonuniyatlari asosida yondashishni taqoza qiladi. Amerikalik psixolog A.Gezell o'smir yoshining davrlanishiga alohida e'tibor qaratib,

o'ziga xos xususiyatlarni sharhlab o'tgan edi.

Demak, voyaga yetmagan yoshdagi bolalar va o'smirlarning yosh davri xususiyatlari va demografik, ijtimoiy-psixologik jihatdan bilish ular o'rtasida xulq-og'ishi va jinoyatchilik xulqining kelib chiqishini oldini olishda muhim hisoblanadi.

Maqolaning ilmiy mohiyati shundan iboratki, psixologiyada voyaga yetmaganlarda xulq og'ishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari muammosi bugungi kunda jahon miqyosida dolzarb muammolardan biri bo'lib, uning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash, voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir bo'layotgan huquqbuzarlik va jinoyatchiliklarni oldini olish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar, ilmiy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning ob'ekti xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlar (12-17 yoshdagi o'smirlar) ularning individual-psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhiti, ot-onalari, qarindosh - urug'lari, sinfdoshlari va o'qituvchilari tomonidan olingan ma'lumotlar hamda xulq og'ishiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlarning o'qish, ish va bo'sh vaqtlaridagi faoliyatlaridir. Tadqiqotda 117 nafar og'ishgan va jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan o'smirlar jalb etildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar: ijtimoiy-psixologik so'rovnoma (IPS), X.Shmishekning «O'smirlarda aksentuatsiya xususiyatlarini

o'rganish» testi, anketa va suhbat usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar:

Tadqiqotimizda og'ishgan va jinoyatchilik xulqining ijtimoiy-psixologik, demografik, yosh va gender xususiyatlarini o'rganish maqsadida voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir bo'layotgan xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqining umumiy holatini tahlil qilishga harakat qildik. Tadqiqotimizda 152 nafar xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlarning o'qish faoliyati, ularning ijtimoiy ahvoli, oilaviy shart-sharoiti va turmush tarzi o'rganildi.

Xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni ko'rib chiqar ekanmiz, birinchi navbatda shaxsning ma'naviy jihatdan qashshoqligi masalasiga alohida to'xtalib o'tish lozim bo'ladi. Kuzatilishiicha, shaxsning ma'naviy qashshoqligi ijtimoiy muhit va shaxs o'rtasidagi murakkab vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Ma'naviy jihatdan barkamol bo'lgan shaxs esa ijtimoiy muhit voqea-hodisalariga nisbatan ijobiy munosabatini namoyon qiladi.

Shaxsning ijtimoiy va psixologik fazilatlari ijtimoiy munosabatlar doirasida shakllanadi. Indivud ijtimoiy muhit bilan aloqaga kirishi jarayonida xulq-atvor normalarini, ma'naviy, ijtimoiy va madaniy tushuncha va tasavvurlarni, yangi-yangi qiziqish va ehtiyojlarni egallab boradi. Shuning bilan bir qatorda shaxs ijtimoiy muhit

munosabatlari va insoniy taqdirning passiv kuzatuvchisi bo'lmagan, o'z turmush tarzini, shart-sharoiti va shaxsiy hayotini o'zi belgilaydi va quradi [1]. Demak, shaxs shakllanishida insonning o'z qiziqishlari, intilishlari, maqsadlari muhim o'rin tutadi.

Shaxsning ma'naviy shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida gapirilganda, birinchi navbatda shaxsning o'zi, ikkinchidan kichik ijtimoiy guruhlar, ya'ni oila, maktab, mahalla, uchinchi esa ishlab chiqarish jamoasi va to'rtinchi navbatda jamiyat va undagi siyosiy, ideologik, madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy sohalarining umumiy holati katta ta'sir o'tkazilishini ta'kidlash lozim bo'ladi. Ushbu omillarga alohida-alohida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, insonning ma'naviy barkamolligida shaxsning o'z o'rne, uning qiziqishlari, ijtimoiy mavqei muhim va asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Chunki inson ijtimoiy munosabatlarning passiv kuzatuvchisi emas, balki uning faol ishtirokchisi ham ekan, u o'z shaxsiy intilish va qiziqishlari, aql-idroki bilan o'zini-o'zi tarbiyalashga, yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishga harakat qiladi. Indivudning ijtimoiylashuvida shaxsning o'rne, ishtiroki, intilish va qiziqishlari pasaysa, inson ma'naviy barkamollik sari emas aksincha, ma'naviy qashshoqlik tomon yuz tutadi. Demak, insoning ma'naviy barkamollikka erishishida shaxsning o'z o'rne, maqsad va qiziqishlari hamda intilishi katta o'rin tutadi. [6]

Olingan natijalardan ma'lum bo'lishicha, shahar joylarida istiqomat qiluvchi voyaga yetmaganlar o'rtasida yuzaga kelayotgan xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqining asosiy sabablari sifatida oila va oilaviy munosabatlardagi nosog'lom psixologik muhit hamda ota-ona va katta yoshdagi kishilar tomonidan bolalar va o'smirlarning bo'sh vaqtlarini nazorat qilmasliklari, qarovsizlik, turli xil axborotlarning ko'pligi, ota-onalarning davlat ishlari bilan bandligi tufayli ularning bo'sh vaqtlarini nazorat qila olmasliklari kabi bir qator omillar aniqlandi. Xususan, qishloq joylaridagi voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqini keltirib chiqaruvchi sabablar sifatida esa, bekorchilik, tarbiyada yo'l qo'yilayotgan nuqsonlar, moddiy-ma'ishiy yetishmovchilik, oilaviy munosabatlardagi nosog'lomlik, oilalarda kriminal muhitning mavjudligi va boshqalar namoyon bo'ldi. Shunisi xarakterliki, qishloq joylarida yashovchi xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar orasida ijobiy xulqqa ega bo'lganlar ham uchraydi. Bundaylarning qonunbuzarlik ko'chasiga kirib ketishiga kattalarning yoki kriminal xulqqa ega bo'lgan boshqa birovlarining hamda

tengqurlarining ta'siri, moddiy yetishmovchilik va bekorchilik sabab bo'lganligi kuzatildi.

Kuzatish va tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'lishicha, bolalar va o'smirlarda turmush sharoitining yaxshi yoki yomonligi holati ham ular da xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqining kelib chiqishida asosiy omillar sifatida namoyon bo'ldi. Bunga ko'ra, o'rganilgan respondentlarning o'rtacha 70,2 foizi oilada yomon sharoitda yashashligi ma'lum bo'ldi. 29,8% xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar oilada yaxshi sharoitda yashaganliklari kuzatildi. (1-jadval)

Ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra, voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishi asosan ishchilar yoki hozircha hech qaerda ishlamaydiganlar oilasiga to'g'ri kelayotganligi kuzatildi. Ammo, tadqiqotimizda oliy ma'lumotlilar, ota-onalari rahabarlik lavozimida ishlayotgan oilalarning farzandlarida ham xulq og'ishi namoyon bo'lishi holalari kuzatildi. Bizningcha, buning asosiy sababini ota-onalarning davlat ishlari bilan bandligi natijasida farzandlarining bo'sh vaqtlarini va ularning faoliyatini nazorat qilish borasidagi sustkashlikka yo'l qo'yishlari bilan izohlash mumkin.

1 - jadval

Og'ishgan va jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlarning ijtimoiy shart-sharoitlari ko'rsatgichlari (n-117)

№	Yosh davri	Qish-loq	Shahar	Yaxshi sharoitda yashaydi	Yomon sharoitda yashaydi	Ko'p qavatli Uyda turadi	Hovlida turadi

1.	12-15 yosh	45,8	54,2	28,4	71,6	67,5	32,4
2.	16-17 yosh	42,6	57,4	31,4	68,9	62,3	37,0
3.	O'rtacha	43,3	56,7	29,8	70,2	64,3	35,7

Olingan natijalardan yana shunday holat ko'rinadiki, oilaning moddiy-maishiy shart-sharoiti, turmush tarzi, moddiy-iqtisodiy imkoniyati va tarbiyaviy ta'sirchanlik darajasi bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy ijtimoiy-psixologik sabablar sifatida namoyon bo'ldi. Ushbulardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqining oldini olishda ularga oilalarda imkon qadar moddiy-maishiy shart-sharoit yaratib berish maqsadga muvofiqligini unutmaslik lozim.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, hovlida yashayotgan bolalar va o'smirlarga nisbatan, ko'p qavatli uylarda yashayotgan bolalar va o'smirlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishi darajasi holati bir muncha yuqoridir. Buning sababi yuqorida ta'kidlanganidek, aholi qatlamining zichligi bilan bir qatorda mahalla, qo'ni-qo'shnichilik ta'sirining sustligi, shaxslararo munosabatlar doirasining kengligi, ijtimoiy nazoratning sustligi va shu kabilarga bog'liqdir.[7]

Xalqimizda "Bir bolaga yetti qo'shni ham ota, ham ona", "Otang mahalla, onang mahalla" degan naqlar mavjud. Zero, mahallalar xonadonlarida farzandlar qariyalarning,

mahalla faollarining ko'z o'ngida o'sib, voyaga yetadi. Mahalla oqsoqoli va uning har bir yoshi katta a'zosi mahalla bolasinig nojuya xatti-harakatini, tamaki chekishi, birovlariga gap otib turishini ko'rib-ko'rmaslikka olmasdan, hech bo'lmaganda ularga fikr bildirish, pand nasihat qilish, ularni to'g'ri yo'lga boshlash mahalla bolalari orasida g'ayriqonuniy xulqning kelib chiqishini oldini olishga muayyan darajada xizmat qiladi. Natijada mahallalardagi ana shunday an'anaviy qo'ni-qo'shnichilik ta'sirining yuqoriligi voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi darajasining pasayishiga olib keladi. Afsuski, bugungi kunda mahalla bolasi nojo'ya harakatni qilib o'tirsa ham ayrimlar menga nima, ota-onasi borku, mening farzandim bo'lmasa deya unga aralashishni o'ziga ep ko'rmaydiganlar ham uchrab turadi. Bunday holat o'z-o'zidan bolalar va o'smirlar o'rtasida xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga imkoniyat yaratadi. Ota-onasi, mahalla a'zosi nazoratidan chetda qolgan o'smir o'zini erkin, mustaqil deb bilib, turli xil g'ayriqonuniy, g'ayriaxloqiy harakatlarni amalga oshirishlari mumkin.[8]

Shuningdek, tadqiqotimiz natijalarining ko'rsatishicha, bolalar va o'smirlarning ma'lumotlilik, onglilik,

dunyoqarash kengligi va bilimlilik darajasi ham xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Sir emaski, ma'rifatlilik, ilm olishga nisbatan bo'lgan intilish, aqliy va ma'naviy barkamollik voyaga yetmaganlarni sog'lom turmush tarziga, axloqiy va huquqiy qoidalarga itoat etishga yetaklaydi. Aksincha, maktabga borishdan bo'yin tovlash, darslarni o'z vaqtida bajarmaslik, bilim olishga nisbatan qiziqishning yo'qligi bolalar va o'smirlarda turli xil g'ayriqonuniy xatti-harakatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Buni tadqiqotimizdan olingan natijalar ham ko'rsatib turibdi. Bunga

ko'ra, o'rganilgan respondentlarning eng katta qismi 8-9 sinf ma'lumotiga (51,1 %) egaliklari, 28,2% 10-11 sinf ma'lumotiga, 9,4% 6-7 sinf ma'lumotiga ega ekanligi aniqlandi. (2-jadval).

Shuningdek, tadqiqotimizda o'rganilgan respondentlarning 10.4 % ni o'rta maxsus bilim yurti talabalari tashkil qildi. Yosh davriga ko'ra, tahlil qilganimizda 14-15 yoshdagi voyaga yetmagan xulq og'ishiga ega bo'lganlar asosan 8-9 sinf ma'lumotiga (72,6%), 16-17 yoshda esa ko'proq 10-11 sinf ma'lumotiga (41,6%) ega ekanliklaroi aniqlandi. (2-jadval).

2 - jadval

Og'ishgan va jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlarning ma'lumoti darajasi ko'rsatkichlari (n-117)

№	Ma'lumoti	11-13 yosh	14-15 yosh	16-17 yosh	O'rtacha
1	1-5 sinf	-	-	0,8	0,8
2	6-7 sinf	22,2	12,7	3,4	9,4
3	8-9 sinf	77,8	72,6	35,7	51,1
4	10-11 sinf	-	11,8	41,6	28,2
5	Kasb-hunar kolleji o'quvchisi	-	2,8	18,9	10,4

Tadqiqotimiz natijalarining ko'rsatishicha, o'rganilgan respondentlarning katta qismida o'qish faoliyatdagi o'zlashtirish ko'rsatkichi ancha past darajaga ega bo'lganlarni tashkil etadi. Xususan, respondentlarning 48,62 foizi maktabda fanlarni yomon o'zlashtirganliklari bilan ajralib turadiganlardir. Atigi 10,60 foiz respondentlar fanlarni o'zlashtirishda

biroz yaxshi natijalarga ega ekanliklarining guvohi bo'ldik. Shuningdek, ularning 13,45 foizi 1 yil sinfdan qolganlar bo'lsa, 6,49 foizi 2 yil sinfdan qolganlarni tashkil qiladi. (3-jadval)

Xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlarda fanlarni o'zlashtirishdagi ijobiylik asosan kichik yosh davrida kuzatilgan bo'lsa, yosh ulg'ayib borish

bilan bu ko'rsatkich darajasi pasayib borganligi kuzatildi. Buning sababi bizningcha, bu yosh davridagi bolalar va o'smirlarda xulq buzilishining to'la shakllanib ulgurmaganligi, yosh ulg'ayib borishi bilan esa, ular xulq-atvorida xulq og'ishining chuqur o'rin egallay boshlaganligiga bog'liqdir. Shunga ko'ra, bolalar va o'smirlar o'rtasida xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqining oldini olish tadbirlarini imkon qadar ertaroq, ilk yoshdan boshlab, amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Xulq og'ishi va tarbiya buzilishiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlarda o'qishga nisbatan qiziqishning sustligi, maqsadli faoliyatning yo'qligi, o'z kelajagi haqida o'ylash, kelajakda qaysi mutaxassislikni egallashga nisbatan intilishning yo'qligi holatlari ham kuzatildi. Shuning uchun ham xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar o'rtasida fanlarni a'lo bahoga o'zlashtirayotganlar deyarli uchramadi.

3 - jadval

Og'ishgan va jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlarning o'qish faoliyatidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari (n-117)

№	O'qish faoliyati ko'rsatgichlari	11 – 13 yosh	14 – 15 yosh	16 – 17 Yosh	O'rtacha
1.	O'zlashtirish darajasi yaxshi	14,8	8,4	3,6	10,6
2.	O'zlashtirish darajasi o'rtacha	28,7	24,7	17,3	20,8
3.	O'zlashtirish darajasi yomon	40,0	45,3	53,1	49,0
4.	1 yil sinfda qolgan	12,3	15,4	17,4	13,2
5.	2 yil sinfda qolgan	4,2	6,2	8,6	6,4

Tadqiqotimiz natijalaridan ma'lum bo'lishicha, bolalar va o'smirlarning to'liq (TO), noto'liq (NTO) oilalarda va ota-onalarning ikkalasi ham yo'qligi natijasida qarindoshlari yoki boshqa birovlarining qaramog'ida tarbiyalanishlari holati ham ularda xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlandi. Buni tadqiqotimizda oilada ota-onalardan birining yoki ikkalasining ham yo'qligi bolalar va o'smirlarda xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqini keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri

sifatida namoyon bo'lganligi (31,8-12,7%) ham ko'rsatib turibdi. Shuningdek, ota-onalardan birining ilgari sudlanganligi holati ham bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi kuzatiladi. Bunga ko'ra, ota-onalardan biri ilgari sudlangan oilada tarbiyalangan bolalarda xulq og'ishi ko'rsatkichi 30,5 foizni ko'rsatgan bo'lsa, ota-onalari sudlanmagan oilalarda tarbiyalangan bolalar va o'smirlar o'rtasidagi bu ko'rsatkich 8,7 foizni tashkil qiladi. (4-jadval)

4 - jadval

Og'ishgan va jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlarning oilaviy tarbiyalanganlik holati bo'yicha ko'rsatkichi (n-117)

№	Oilaviy tarbiyalanganlik holati	Yosh davrlari			O'rtacha
		11 - 13 yosh	14 – 15 yosh	16 – 17 yosh	
1.	Ota-onasi tarbiyasida	26,5	18,8	12,3	16,4
2.	Ota-onadan birining tarbiyasida	32,8	30,6	26,7	31,8
3.	Ikkalasi ham yo'q oilada	10,5	11,7	16,2	12,7
4.	Ota-onalardan biri sudlangan oilada	20,8	28,8	38,4	30,5
5.	Ota-onasi sudlanmagan oilada	9,6	9,9	6,6	8,7

Jadvalda keltirib o'tilgan ko'rsatkichlarni tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, oilada ota-onadan birining yoki ikkalasining ham yo'qligi bola tarbiyasida nuqsonlarning kelib chiqishiga, ular faoliyatini nazorat qilishning susayishi va ayrim moddiy-maishiy yetishmovchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Tabiiyki, bunday holat bolalar va o'smirlar xulqida o'zgarishlarning kelib chiqishiga imkoniyat yaratishi ham mumkin ekan. Shuningdek, oilada ota-onalarning biri yoki ikkalasining ham sudlanganligi holati ham oilada kriminogen muhitning paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar va o'smirlar xulqida salbiy o'zgarishlarning kelib chiqishi uchun qulay ijtimoiy-psixologik muhit mavjud bo'ladi, hamda ularning yosh davri va individual-psixologik

xususiyatlariga ko'ra, kriminogen muhit bola tomonidan qabul qilinadi va xulq og'ishining kelib chiqishiga ta'mir ko'rsatadi.

Tadqiqotimiz natijalarining ko'rsatishicha, ota-onalarning ma'lumotlilik darajasi ham bolalar va o'smirlarda xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga ta'sir etishi mumkinligi kuzatildi. Ota-onalarning ilmu-ma'rifat, aqlu-zakovatligi bolalar tarbiyasiga, ularning shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buni tadqiqotimizdan olingan natijalar ham ko'rsatib turibdi. Bunga ko'ra ota-onalari to'liqsiz va o'rta ma'lumotga ega bo'lgan oilalarda tarbiyalangan bolalar va o'smirlarda xulq og'ishi darajasi (28,8% - 44,2%) boshqa ma'lumotlilik darajalari ko'rsatkichidan ancha yuqori ekanligi kuzatiladi. (5 - jadval)

5 - jadval

Og'ishgan va jinoyatchilik xulqiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar ota-onalarining ma'lumotlilik darajasi ko'rsatkichi (n-152)

№	Ma'lumot darajasi	Yosh davrlari			O'rtacha
		11-13 yosh	14-15 yosh	16-17 yosh	
1.	To'liqsiz o'rta	27,8	29,7	28,2	28,8
2.	O'rta	45,2	41,4	45,0	44,2
3.	O'rta maxsus	18,6	21,4	17,3	19,7
4.	Oliy	8,4	7,5	9,5	7,5

Voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqining ijtimoiy-psixologik, demografik, yosh va gender xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olingan natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, shahar joylarida voyaga yetmaganlar o'rtasida yuzaga kelayotgan xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqi kelib chiqishining asosiy sabablari sifatida oila va oilaviy munosabatlardagi nosog'lom muhit hamda ota-ona va katta yoshdagi kishilar tomonidan bolalar va o'smirlarning bo'sh vaqtlarini nazorat qilmasliklari, qarovsizlik, turli xil axborotlarning ko'pligi, ota-onalarning davlat ishlari bilan bandligi tufayli ularning bo'sh vaqtlarini nazorat qila olmasliklari va boshqa omillar namoyon bo'ladi. Qishloq joylaridagi voyaga yetmaganlarda xulq og'ishini keltirib chiqaruvchi sabablar sifatida esa, bekorchilik, tarbiyada yo'l qo'yilayotgan nuqsonlar, moddiy-ma'ishiy yetishmovchilik, oilaviy munosabatlardagi nosog'lomlik, oilalarda kriminal muhitning mavjudligi va boshqalar kuzatildi.

Hovlida yashayotgan bolalar va o'smirlarga nisbatan, ko'p qavatli uylarda yashayotgan bolalar va o'smirlarda xulq og'ishi va tarbiya

buzilishi darajasi holati bir muncha yuqoridir. Buning sababi aholi qatlamining zichligi bilan bir qatorda mahalla, qo'ni-qo'shnichilik ta'sirining sustligi, shaxslararo munosabatlar doirasining kengligi, ijtimoiy nazoratning sustligi va shu kabilarga bog'liqdir.

Ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra, voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishi va tarbiya buzilishi asosan ishchilar yoki hozircha hech qayerda ishlamaydiganlar oilasiga to'g'ri kelayotganligi kuzatiladi. Ammo, tadqiqotimizda oliy ma'lumotlilar, ota-onalari rahabarlik lavozimida ishlayotgan oilalarning farzandlarida ham xulq og'ishi namoyon bo'lishi holalari kuzatilishining guvohi bo'lamiz. Shuningdek, oilaning moddiy-maishiy shart-sharoiti, turmush tarzi, iqtisodiy imkoniyati va tarbiyaviy ta'sirchanlik darajasi bolalar va o'smirlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy ijtimoiy-psixologik sabablar sifatida namoyon bo'lishi kuzatildi.

Xulosa va takliflar: Voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishining ijtimoiy-psixologik, yosh va demografik xususiyatlarini

o'rganishi natijalariga asoslanib quyidagicha xulosa qilish mumkin:

1) xulq og'ishi va tarbiya buzilishiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlar shaxsida asotsiallik, psixik beqarorlik, impulsivlik, qo'zg'aluvchanlik, hissiyotga beriluvchanlik, gipertimlik, affektga moyillik va boshqa shu kabi xususiyatlar kuzatiladi. Shuningdek, bolalar va o'smirlar shaxsidagi nevrotizm, psixotizm va yosh davri xususiyatlari ham xulq og'ishining kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin;

2) voyaga yetmaganlarda yosh davri inqirozlari xususan, o'smirlik yoshi davri inqirozi, o'tish davri qiyinchiliklari hamda ularning psixofiziologik taraqqiyotidagi noturg'unlik, akseleratsiya jarayonlari, pubertat davri rivojlanish xususiyatlari, taqlidchanlik, emansipatsiya (kattalar nazorati va kuzatuvidan ozod bo'lishga intilish), gedonistik (o'zgacha usullardan zavq-shavq olish, lazzatlanish) psixologiya, guruhlanish reaksiyasi va qarama-qarshi nuqtai nazar reaksiyasining namoyon bo'lishi va boshqalar xulq og'ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga ta'sir qiladi;

3) voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishi ko'rsatgichi aholi qatlami zich, shaxslararo munosabatlar doirasi keng hisoblangan hududlar va shahar joylarida boshqa hududlar va qishloq joylariga nisbatan yuqoridir;

4) voyaga yetmaganlar va ularning ota-onalarining ilmlilik,

ma'lumotlilik darajasi bolalar va o'smirlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishiga olib keladi;

5) to'liq oilalarga nisbatan noto'liq oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar va o'smirlar o'rtasida xulq og'ishi va tarbiya buzilishi ko'rsatkichi yuqoridir;

6) oilada moddiy-maishiy shart-sharoitning yetarli emasligi bolalar va o'smirlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishiga olib kelishi mumkin.

Ma'lumki, bolalar va o'smirlar o'rtasida xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqining oldini olish tadbirlari eng avvalo, xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqini keltirib chiqaradigan shart-sharoit va ijtimoiy-psixologik sabablarni bartaraf qilishni taqozo qiladi.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishining oldini olishda ijtimoiy-psixologik, individual-psixologik, sotsiologik, hududiy va kriminologik xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Shuningdek, voyaga yetmaganlar o'rtasida yuzaga kelayotgan xulq-og'ishi va jinoyatchilik xulqining oldini olish ishlari umumiy va maxsus-individual tarzda olib borilishi bilan xarakterlanadi [5].

Umumiy ijtimoiy chora-tadbirlarga jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, siyosiy barqarorlikni ta'minlash, xalqning turmush tarzi va mikro muhit munosabatlarini yaxshilash, fuqarolarning madaniy-ma'naviy va ma'rifiy salohiyatini o'stirish va boshqalar kiradi.

Maxsus-individual xarakterdagi tadbirlar sifatida esa bolalar va

o'smirlarning shaxs xususiyatlari, ularning psixologiyasi, dunyoqarashi, qadriyatlar orientatsiyasi, hayotiy pozitsiyasi, onglilik darajasi va ijtimoiylashuv xususiyatlarini hisobga olgan holda chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qo'llash tushuniladi.

Profilaktik chora tadbirlarni ishlab chiqishda voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining kelib chiqishigacha bo'lgan davrga, bu davrda olib boriladigan umumiy tarbiyaviy tadbirlarga, ularni takomillashtirishga, ta'sirchanlik darajasini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Shuning uchun ham voyaga yetmaganlar o'rtasida yuzaga kelayotgan xulq og'ishining oldini olishda ushbu oraliq davri muhim ahamiyat kasb etishligini unutmashimiz kerak.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida xulq og'ishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tabiatini tushunish uchun avvalo ularning boshlanish davrini, uning ob'ektini hamda xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar shaxsiga qanday ta'sir ko'rsatish xususiyatini bilib olish talab etiladi. Ushbu masalani yechish uchun tabiiy ravishda shaxsning motivatsion sohasiga aloqador bo'lgan ma'lumotlardan foydalanishga to'g'ri keladi.[10]

Xulq og'ishi va tarbiya buzilishiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlar shaxsining umumiy yo'nalishi tahlili xulq og'ishi va tarbiya buzilishining oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni nafaqat xulq og'ishi va

salbiy illatlarga ega bo'lgan bolalar va o'smirlar o'rtasida olib borish, balki sog'lom xulqli bolalar va o'smirlar o'rtasida ham ularni olib borish zaruriyatini ko'rsatadi.

Xulq og'ishiga ega bo'lgan bolalarga profilaktik ta'sir ko'rsatishda o'smirning shaxs sifatidagi shakllanishi jarayonini, uning o'ziga xos xususiyatlarini, xarakter xislatlari va psixologiyasini hisobga olgan holda ish tutish yaxshi natija berishini unutmash lozim.

Bolalar va o'smirlarda xulq og'ishining oldini olishning muhim shartlaridan yana biri – tarbiyaviy jarayonda maktab va oila hamkorligini to'g'ri yo'lga qo'yishdir. Afsuski, bu masalani bugungi kunda talab darajasida deya olmaymiz. Shuning uchun ham bunday paytlarda ko'pincha oila va maktab hamkorligi, ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro aloqaning uzilishi tufayli bolalar va o'smirlar tarbiyasini, ayniqsa, ular xulqidagi o'zgarishlarni tuzatish ancha qiyin kechadi.[9]

O'qituvchi o'quvchi o'sib voyaga yetayotgan oila muhitini, uning axloqiy qiyofasini har doim ham bilavermaydi. Ba'zan ayrim o'qituvchilar bolalar va o'smirlar bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlarni ota-onalar bilan maslahatlashmay, ular haqida muayyan ma'lumotlarga ega bo'lmay amalga oshiradilar. Bunday holatlarda tabiiy ravishda tarbiyaviy tadbirlarning olib borilishi ko'zda tutilgan profilaktik choralarning ta'sirchanlik darajasining pasayishiga sabab bo'ladi. Oqibatda

profilaktikadan ko'zlangan maqsadga erishilmay qolinadi. [8]

Bolalar va o'smirlar o'rtasida xulq og'ishi va tarbiya buzilishining oldini olishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

1. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi xulq og'ishining kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri sifatida "Bolalar va o'smirlar faoliyatini nazorat qilmaslik", "Oilada bola tarbiyasiga e'tiborning susayishi" kabilar namoyon bo'layotganidan kelib chiqib, oilada va oiladan tashqarida bolalar va o'smirlar faoliyatini, bo'sh vaqtlarida nima bilan shug'ullanayotganini nazorat qilish va oilada bolalar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish zarur.

2. Moddiy-maishiy sharoitning yetarli emasligi voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi va tarbiya buzilishining kelib chiqishiga ta'sir etishini hisobga olib, bunday oilalarga mahalliy hokimiyat, ijtimoiy ta'minot va xayriya jamg'armalari tomonidan moddiy yordamlar berib turishni tashkil etish.

3. Ota-onalar, katta yoshdagi odamlar va o'qituvchilar tomonidan bolalar va o'smirlarga nisbatan qo'llanilayotgan qattiqqo'llik, qo'pol va adolatsiz munosabatlarga barham berish.

4. Voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi ko'pincha ota-onalar, o'qituvchilarning bolalar va o'smirlar psixologiyasini bilmasdan turib munosabatda bo'lishlari natijasida kelib chiqayotganligi ota-onalarni psixologik-pedagogik bilimlar bilan qurollantirish zarurligini ko'rsatadi.

5. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi tarbiya buzilishining oldini olish ishlariga yoshi ulug' insonlarni jalb etish yaxshi natija berishi mumkinligini yodda tuting.

6. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi xulq og'ishi va tarbiya buzilishining oldini olish tadbirlarining psixologik-pedagogik jihatdan ilmiy asoslangan bo'lishini ta'minlash.

7. Voyaga yetmaganlarda xulq og'ishi va jinoyatchilik xulqining oldini olishda bolalar va o'smirlarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish.

8. Farzandingizni boshqa bolalar bilan do'stlashishga o'rgating. Uning yolg'iz qolishiga yo'l qo'ymang, yolg'izlik o'smirni oqibatini anglab yetmagan holda turli xil g'ayriqonuniy xatti-harakatlarga undashi mumkin.

9. Farzandingizning har bir salbiy xatti-harakatini e'tiborsiz qodirmang. Unutmangki, salbiy xislatlar mayda-mayda ko'ringan kamchiliklar oqibatida kelib chiqadi.

10. Yoshlikdagi do'stlik farzandingizning kelgusi hayotida poydevor bo'lishi mumkinligini unutmangki lozim.

11. Bolani ortiqcha taltaytirib erkalash uni har jihatdan sustlashtirib qo'yadi, sevgi va mehr ko'rsatish esa uni yanada faol bo'lishga, ijobiy xislatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Erka o'sgan bola faqatgina shaxsiy manfaatlarini ko'zlaydigan, mas'uliyatsiz bo'lib voyaga yetadi.

12. Farzandingizni ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug'ullanishga

yo'naltiring. Ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug'ullanish uni turli xil salbiy hislardan, o'y-xayollardan, g'ayriqonuniy harakatlardan himoya qiladi.

13. Farzandingizning kimlar bilan do'stlashgani bilan qiziqing. Zero, do'stlar davrasi bolada ijobiy yoki salbiy

xulq-atvorning shakllanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi.

14. Farzandingizni ko'proq kitob o'qishga yo'naltirishga harakat qiling. Kitobxonlik bolaning dunyoqarashini o'stiradi, salbiy xatti-harakatlardan himoya qiladi [6].

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Ganyushkina I.S. Neblagopoluchnaya semya i deviantnoe povedenie nesovershennoletnix: Uchebnoe posobie - M.: 2006. Izdatel. MPSI. - 345 str.
2. Deviantnoe povedenie deti i podrostkov. 2-izdanie. - M., 2007. Izdatelstvo: «Gavdeamus». - 346 str.
3. Zmanovskaya Ye.V. Deviantologiya (psixologiya otklonyayushchegosya povedeniya) – M., 2007, 4 -oe izdanie. - 285 str.
4. Mendelevich V.D. Psixologiya deviantnogo povedeniya. Uchebnoe posobie dlya vuzov. – M., 2008, Izdatelstvo «Rech» - 346 str.
5. Umarov B.M. O'zbekistonda voyaga etmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya T.: 2009. B.278-bet.
6. Umarov B.M. Oilaviy tarbiya saboqlari. "Tasvir nashriyot uyi" T.: 2019. 52-bet.
7. Umarov, B. M. Талаба ёшлар социал интеллектининг озига хос хусусиятлари. *Psixologiya Учредители: Бухарский государственный университет*, (3), 56-59.
8. Xujayev, M. I. (2018). THE COVERAGE OF THE PROBLEM OF NATIONALITY AND ITS ROLE ON THE PRESENT DAY IN AHMAD ZAKI VALADI'S WORK. *Мировая наука*, (6 (15)), 61-63.
9. Isoxonovich, M. X. (2022). Middle Ages Movarounnahr Rulers in the Views OF Researchers. *European Journal of Innovation in Nonformal Education*, 2(6), 134-136.
10. Qizi, S.M.S.A., & Mengboyevich, U.B. (2025). Farzand tarbiyasida oilaviy muhitning psixopedagogik rolini o'rganish. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4-2), 46-50.
11. Sanaqulova, F., & Umarov, B. (2025). Oila tarbiyasida o'spirin yoshdagi bolalarni mustaqil hayotga tayyorlashning pedagogik va psixologik mexanizmlari. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(4-2), 41-45.
12. Bilolova, Z. B. (2026). The role of cognitive psychotherapy in stabilizing marital relationships and providing psychological services to couples. *World Bulletin of Education and Learning*, 2(2), 83-88